

TALABALIK DAVRIDA KASBIY REFLEKSIYANI SHAKLLANISHIGA REFLEKSIVLIKNI TA'SIRI

Jo'rayev Nurbek Sa'dullayevich

Qo'qon davlat universiteti Psixologiya kafedrası professori

Annotatsiya. Maqolada talabalik davrida kasbiy refleksiyanı shakllanishiga refleksivlikning ta'siri masalalarini o'rganishga qaratilgan. Unda talabalik davrida refleksivlikning namoyon bo'lishi va kasbiy refleksiya masalalarini nazariy tahliliga bag'ishlanadi. Ayniqsa, kasbiy refleksiyanı shakllanishiga refleksivlikni o'zı empirik ma'lumotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: talaba shaxs, kasbiy refleksiya, refleksivlik, o'tmishdagi faoliyat, hozirgi faoliyat, kelajakdagi faoliyat, boshqalar bilan hamkorlik va muloqot, kasbiy faoliyat, boshqaruv refleksiya, refleksiv komponent, ehtiyoj, motiv, qadriyat yo'nalishi.

Ma'lumki, o'quv faoliyati hamkorlikdagi faoliyat sharoitida muammoli nizoli vaziyatlarni hal etish, talabalarning kasbiylashuvi, o'z bilimlarining muvofiqlik darajasini aniqlashni nazarda tutadi. O'quv faoliyati jarayonida shaxsning rivojlanishini, o'quv guruhidagi ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishni ta'minlovchi eng ta'sirchan mexanizm refleksiya hisoblanadi. Refleksiya sub'yektning o'z ongi bilan maxsus faoliyati bo'lib, natijada bu ong haqidagi g'oyalarni keltirib chiqaradi. Shuning bilan birga refleksiv komponent sub'yektning bilish faolligi yo'nalishini aniqlash orqali tafakkurni tashkil etish omili sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, refleksiya faoliyatni amalga oshirish jarayonidan "chiqish" imkoniyati va faoliyatni rivojlantirishning kelajakdagi qadamini refleksiya asosida keyingi loyihalashtirish imkoniyati sifatida qaraladi [5].

Refleksiyaga insonning o'z xatti-harakatlarini, o'z "Men"ini, shuningdek, guruh faoliyatini hamkorlikda amalga oshiradigan odamlarning ichki dunyosini anglashi kiradi [7]. O'z navbatida refleksiyanı o'quvchining o'z faoliyatini va tafakkur faoliyatida yuz bergan o'zgarishlarni qayta o'ylab ko'rishi natijasida uning ongi doirasida bo'ladigan hodisa deb qaraymiz.

Pedagogning vazifasi talabalarning shaxsiy refleksiyasini rivojlantirish shartlari bo'lgan o'zini o'zi faollashtirishga intilish, kognitiv ehtiyojlar, turli vaziyatlarda xatti-harakatlarni tahlil qilish va tushunish, o'z harakatlarining oqibatlarini bashorat qilishdan iborat. O'quv faoliyatida pedagogga talabalarning jamoaviy va kommunikativ va shaxsiy refleksiya darajasini aniqlash tavsiya etiladi.

Refleksiyani rivojlantirishning ushbu darajalari va shartlari o'quv jarayonini shakllantirish va takomillashtirish, yosh mutaxassislarining kasbiy faollashuvi va kasbiy-shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va qurish uchun zarurdir. Refleksiv ko'nikmalarning rivojlanganlik darajalari bo'yicha talabalardan olingan

ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan. Shuning bilan birga dasturlardan oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish uchun keyingi ta'lim jarayonida, butun o'quv jarayoni davomida foydalanish zarur [8].

A.B.Voronsov o'z harakatlarini tahlil qilmasdan turib, ularni tuzatish va oldinga siljitish mumkin emasligini yozgan [4]. Pedagogik adabiyotlarda talabalarda refleksiyaning tarbiyalash uchun o'qituvchida refleksiya qobiliyati rivojlangan bo'lishi shartmi, degan masala munozarali hisoblanadi. N.Yu. Postalyuk [10] talabalarining ushbu fazilatini rivojlantirish o'qituvchining o'z refleksiv faoliyatiga bevosita bog'liqligini ko'radi. Aksincha, G.A. Sukerman, refleksiyaning o'rgatish mumkin emasligini, pedagog faqat o'z talabalariga refleksiyaning o'rganishga yordam berishi mumkinligini aytadi [9].

A.B.Voronsovning fikricha, refleksiyaga faqat o'zi ushbu sifatni yuqori darajada rivojlantirgan rahbar-pedagogga o'rgata oladi. Uning fikricha, boshqaruv refleksiya uch qatlamlidir: uning bir qismi ijrochilar (o'quvchilar) harakatlarining refleksiv tahlili bilan bog'liq, ikkinchisi - o'quv vaziyati refleksiya va uchinchisi rahbarlar (o'qituvchilar) ning o'z harakatlari refleksiyasiga qaratilgan [4].

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirish tizimi L.N. Borisova tomonidan quyidagi ketma-ketlik ko'rinishida taqdim etilgan: talabalarining refleksiv kasbiy faoliyatga yo'nalganligini rivojlantirish (ehtiyotlar, motivlar, qadriyat yo'nalishini shakllantirish), yangilik va innovatsiyalarni amalga oshirishga intilish, noaniqlik darajasi yuqori bo'lgan vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlik; talabalarining standart kasbiy vazifalarni hal qilish jarayoniga jalb etilishi; o'z shaxsiy va kasbiy stereotiplarini qayta ko'rib chiqish qobiliyatlarini shakllantirish, o'zini o'zi adekvat baholash, kasbiy rivojlanishida o'zini o'zi tahlil qilish, busiz refleksiya rivojlanishining ijobiy dinamikasi mumkin emas [2].

Ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar uchun motivlar, maqsadlarni mustaqil belgilash va anglash, o'z faoliyati vositalarini tanlash, natijalarni aks ettirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o'quv va kasbiy muammolarni talabaning hayotiy muammolariga o'tkazish muhim hisoblanadi.

O'qituvchilarning talabalar bilan munosabatlari faqat ishonch, ochiqlik, muloqot asosida qurilishi, refleksiya rivojlanishi va kechishi mumkin bo'lgan ijobiy muhitni yaratishi kerak. Biz talaba o'z faoliyatiga ega bo'lsa va uni o'qish jarayonida amalga oshirishga qodir bo'lsagina, u professional bo'ladi, degan fikrga qo'shilamiz.

Talabaning bilish faoliyati kasbiy faoliyatga mos bo'lishi, ya'ni mutaxassis tayyorlanayotgan kasbiy faoliyat xususiyatlarini o'zida aks ettirishi lozim [1]. Bugungi kunda talabalar uchun ma'ruzalarga qatnashish, o'qitilayotgan ma'lumotlarni konspekt qilish va shu asosda sinov va imtihonlarni topshirish yetarli emas.

Ta'lim jarayonida olingan barcha ma'lumotlar uning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yo'naltirilishi kerak. Aynan olingan bilimlarning muhimligini anglash o'quv jarayonida bo'lajak mutaxassisni shakllantirish uchun zarur bo'lgan motivatsiyani beradi [6].

Refleksiv faoliyat natijasi talabaning rivojlanishi va o'zgarishi, uning o'quv faoliyatida tutgan mavqeining o'zgarishi, uning faoliyat subyekti sifatida

faollashuvdir. Ta'lim mazmuni ilgari surilgan maqsadlarini o'qish qobiliyatini rivojlantirish vositasiga aylanganda rivojlantiruvchi ta'limot shu tarzda shakllanadi. Nafaqat o'zaro ta'sir holatini yaratish, balki psixika rivojlanishining ijodiy tabiatini namoyon qilish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Shu jumladan ta'lim holatlari orqali ham amalga oshiriladi [8].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kasbiy refleksiyaning rivojlantirish shaxsiy refleksiya asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar quyidagilarga yo'naltirilishi kerak:

1. Talabalarni o'z-o'ziga singdirish orqali shaxsiy refleksiyaning shakllantirish.
2. Kasbiy faoliyatga sho'ng'ish orqali haqiqiy kasbiy pedagogik refleksiyaning shakllantirish [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz talabalarning refleksiv qobiliyatlarini nafaqat aniqlash, balki shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan ba'zi o'qitish turlarini tavsiflashga harakat qilamiz. Ma'ruza o'qish orqali kasbiy ta'limga refleksiv yondashuv yaxshi qo'llaniladi. U interfaol topshiriqlar deb ataladigan hamda ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlangan.

Shu tarzda tuzilgan ma'ruza talabalarning fikrini qo'zg'ata boshlaydi hamda ularning refleksiyasini rag'batlantiradi. Talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning yana bir usuli Suqrot suhbat usuli hisoblanadi. Unda refleksiyaning faoliyatga tushiruvchi kuchli mexanizm mavjud.

O'qituvchi auditoriyaga savollar bilan murojaat qiladi. Mavzu bo'yicha har qanday ma'lumot, konsepsiya, metodologiyani shubha ostiga qo'yadi, shu bilan birga o'zi tayyor javoblarni bermaydi va shu bilan suhbatdoshlarini refleksiya maydoniga jalb qiladi.

O'qitishda refleksiv tafakkurni rag'batlantiruvchi turli vositalar - guruhli munozaralar, tartibli suhbat usullari, ishbilarmonlik o'yinlari va seminarlar faol ishtirok etishi kerak. O'quv kurslarini o'zlashtirish bo'yicha kundalik ishlarni yaxshilash uchun ishtirokchilarga an'anaviy fikrlash doirasidan chiqishga va yangi kashfiyotlar qilishga yordam beradigan mashqlar va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [8].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kasbiy refleksiyaning shakllantirish talabalarning o'quv faoliyatidan kasbiy faoliyatga o'tish, ya'ni shaxsiy pozitsiyaning bosqichma-bosqich o'zgartirish, kasbiy-shaxsiy pozitsiyaga aylantirish bilan amalga oshirilishi kerak. Bunday o'tish imkoniyatini A.A.Verbitskiy kvaziprofessional faoliyatda ko'radi. Bu yerda real kasbiy faoliyatda sodir bo'ladigan jarayonlar va hodisalar modellashtiriladi, ya'ni ta'lim sharoitida u yoki bu darajadagi adekvatlik bilan takrorlanadi.

Kelajakdagi kasbiy faoliyatni modellashtirish asosida ishbilarmonlik o'yini yotadi. O'yinda har bir ishtirokchi tayyorgarlik va qaror qabul qilishning real jarayonlarida, o'yin va o'quv harakatlarini tartibga solishda abstrakt, shaklan belgili bilimlarni o'zlashtiradi. Bo'lajak mutaxassislar jamoasidagi munosabatlar me'yorlarini qabul qilish, ularga bo'ysunish, shaxsiy manfaatlarni boshqa ishtirokchilar manfaatlari bilan muvofiqlashtirish orqali har bir talaba faol ijtimoiy pozitsiyada bo'ladi va professional sifatida shakllanadi [3].

"O'zbekistonda ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishga zamonaviy yondashuv: nazariya va amaliyot"

Kasbiy refleksiyaning shakllanishi stixiyali emas, balki rejali, maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u bir qator o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlarni o'z ichiga oladi. L.N.Borisova kasbiy refleksiyaning shakllantirish bosqichlarining quyidagi mantig'ini nazariy jihatdan tadqiq etgan va tajribada isbotlagan:

1-bosqich – o'zini o'zi bilish, bunda ijodiy izlanishning umumiy texnologiyasini rivojlantirish, talabning shaxsiy refleksiv pozitsiyasini aniqlash, o'zini shaxs sifatida baholash amalga oshiriladi.

2-bosqich – o'zini o'zi yaratish. Ushbu bosqichda talabning shaxsiy pozitsiyasini pedagogik pozitsiyaga aylantirish, kelajakdagi pedagogik faoliyatda o'zini loyihalash (Men pedagogman) amalga oshiriladi.

3-bosqich - ta'lim maydonini tashkil etish qobiliyatlarini o'z-o'zini ro'yobga chiqarish, kasbiy faoliyatni aks ettirish, ijodkorlik va o'zini ijodkor shaxs sifatida anglashni rivojlantirish [2].

Refleksiv o'qitish texnikasini ishlab chiquvchilarning fikriga ko'ra, doimiy ravishda o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi tashkil etish, turli vaqt davrlaridagi o'z yutuqlarini taqqoslash talabaga o'zini o'zi tahlil qilish va o'z faoliyatini rejalashtirish, motivatsiyalangan kasbiy rivojlanish odatini singdirishga qodir. Shuning uchun o'qitishning refleksiv metodlarini qo'llash, ayniqsa, psixologiya fakultetlarida zarur bo'lib ko'rinadi. Bundan tashqari, ta'limning refleksiv usullarini qo'llash, ular o'qituvchiga ijodkorlik va o'zini o'zi amalga oshirish uchun joy berishi bilan asoslanadi [8]. Albatta, ta'limning refleksiv modeli mas'uliyatni, doimiy aqliy zo'riqishni, narsalarga tanqidiy qarashni, improvizatsiyani talab qiladi.

Mazkur maqolada, bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiya va refleksivlik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalarini ham tekshirishga harakat qildik. Buning uchun tadqiqot jarayonida ishtirok etayotgan talabalar guruhida O.V.Kalashnikovaning "Pedagoglarning kasbiy refleksivligini shakllanganlik darajasini aniqlash metodikasi va V.V.Ponamaryovaning "Refleksivlik darajasini aniqlash" metodikalari o'tkazilib, olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilib, jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

Refleksivlik va kasbiy refleksiya o'rtasidagi o'zaro munosabat xususiyatlari

Refleksivlikning ustuvor strategiyalari	Kasbiy refleksiya
O'tmishdagi faoliyatga	0,78**
Hozirgi faoliyatga	0,20**
Kelajakdagi faoliyatga	0,12**
Boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga	0,90*

1-jadval natijalariga ko'ra, o'tmishdagi faoliyatga refleksiyasi kasbiy refleksiya bilan ($r=0,78$; $p \leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Natijalardan ko'rish mumkinki, bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyaning rivojlanishi ulardagi o'tmishdagi bilim, ko'nikma, malaka va tajribalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shuning bilan birga pedagog faoliyatidagi har qanday tanlov ularda shakllangan tasavvur, tushunchalarning bugungi kun bilan uyg'unlashishi natijasida yuzaga keladi.

Metodika natijalariga ko'ra, hozirgi faoliyatga refleksiya kasbiy refleksiya bilan ($r=0,20$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. Unga ko'ra, bo'lajak pedagog shaxsida kasbiy refleksiyaning rivojlanishi hozirgi kunda egallayotgan mutaxassislikka doir bilim, ko'nikma va malakalarning darajasi bilan bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar ularni tanlagan kasbiga nisbatan ongli munosabatni qaror topishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kyalajakdagi faoliyatga refleksiya kasbiy refleksiya bilan ($r=0,12$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli o'zaro bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. O'z navbatida bo'lajak pedagoglarda kelajakda tanlagan kasbida o'zini ko'ra olishi ularda ongli kasbiy tasavvur, tushunchalarni shakllanganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, kasbiy faoliyatini oqilona boshqarish, rejalashtirish ko'p jihatdan ulardagi kasbiy o'zini o'zi anglash tizimi xususiyatlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Tajriba natijalariga ko'ra, boshqalar bilan hamkorlik va muloqotga refleksiya kasbiy refleksiya bilan ($r=0,90$; $p\leq 0,05$) o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Ma'lumki, pedagogik faoliyat o'zining nomi bilan hamkorlikda faoliyat yuritishni taqazo etadi. Shunday ekan ularning faoliyati kasbiy faoliyati nuqtai nazaridan kursdoshlari, o'quvchilar bilan samarali va mazmunli muloqot jarayonini tashkil qilishga qaratilgan. Bu esa mazkur ikkita hodisa o'rtasida o'zaro samarali aloqadorlik mavjudligini taqazo etadi.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- bo'lajak pedagoglarda refleksivlik xususiyatini taraqqiyoti ularda kasbiy refleksiyaning rivojlanishiga ijobiy, samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlangan;

- bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyaning rivojlanishida yosh va individual xususiyatlarda farqli xususiyatlar ko'zga tashlanadi;

- bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyaning rivojlanishi ulardagi tanlagan kasblari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib topganligi bilan taqazolanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондаренко Т. А. Педагогические условия формирования рефлексивной культуры у студентов: Автореф. дисс. канд. пед. наук / Т.А. Бондаренко. - Магнитогорск, 1999. - 23с.

2. Ботвинников А.Д. Организация и методика педагогических исследований / А.Д.Ботвинников. - М., 1981. - 43с.

3. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе / А.А. Вербицкий // Высшее образование в России. 2006. - №11. - С.39-46.

4. Вульф Б.З. Рефлексия: учить, управляя / Б.З. Вульф // Мир образования. 1997. - №1. - С.63-65

5. Жукова Н.В. Единство антиципации и рефлексии как психологический механизм регуляции мышления студента в контекстном обучении / Н.В. Жукова // Диссертация канд. психол. наук. - М., 2000. - 137с.

6. Иванцовская Н.Г. Повышение уровня педагогической рефлексии как основа непрерывной инновационной деятельности преподавателя: автореф. дисс. канд. пед. наук / Н.Г. Иванцовская. - Новосибирск, 1999. - 17с.
7. Машбиц Е.И. Психологические основы управления учебной деятельностью / Е.И. Машбиц // Диссертация д-ра психол. наук. - Киев, 1988. - 224с.
8. Пантелеева В.В. К проблеме использования рефлексивных методов обучения / В.В. Пантелеева // RELGA – научно-культурологический журнал широкого профиля. 2006. - №16. – С.31-40
9. Пидкасистый П.И. Педагогика: учеб. пособие для студ. пед. учеб. заведений / П.И. Пидкасистый. - М., 1998. - 414с.
10. Реан А.А. Рефлексивно-перцептивный анализ деятельности педагога / А.А. Реан // Вопросы психологии. 1990. - №2. - С.77-81